МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА
ISSN: 3030-3001
SJIF 2023: 3.019, 2024: 5.444 ResearchBib IF: 13.14/ 2024
Том 2, Выпуск 9

# O`ZBEK XALQI TURMUSHI BILAN BOG`LIQ MUSIQACHILIK KASB-HUNAR MAQOLLARI TAHLILI

**Bobojonova Dilnoza Oxunjonovna**
**Osiyo xalqaro universiteti**
**"Pedagogika psixologiya" kafedrasi o'qituvchisi**
E-mail: bobojonovadilnozaoxunjonovna@oxu.uz

**Annotatsiya** XX asrning oxirgi 30-yilida maqollarni tahlil qilishning yangi struktur-semantik yondashuvi yuzaga keldi. Bu matn lingvistikasi va paremiologiya fani sohalari taraqqiyoti bilan bog`liq. Ilmiy paremiologiyaning asoschilaridan biri G.L.Permyakovdir. Uning fikricha, "tugallangan fikr"ni shakllantiruvchi majoziy ma'noli gaplarga maqol deyiladi. Maqollarni ham G.L.Permyakov (bosma qolip so`zlar) nazariyasi doirasida ko`rib chiqadi. Har bir tilning lug`at zahirasida murakkab o`ziga xos qoliplar (klishe) bo`ladi, ya'ni turg`un, nutqda tayyor holda qo`llaniladigan, bo`linmas oborotlar mavjud.

**Kalit so'zlar:** maqol, sipoh, hut, omoch, yer tanobi, hammol, qantar…

Ma'lumki, maqollar xalqning ma'naviy madaniyati, urf-odati, kasbi, turmushi bilan bevosita bog`liq bo`lib, qisqa, ixcham, ma'no jihatidan salmoqdor birliklar sifatida har bir davr ruhiga mos keladi. Chunki hozirgi mustaqillik, milliy qadriyatlarning tiklanish davri so`zlovchidan tilni, ayniqsa, davlat tili maqomiga ega bo`lgan o`zbek adabiy tilini chuqur egallashni, fikrni ixcham, asosli, obrazli va ta'sirchan shaklda ifodalashni taqozo etadi. Bu esa publisistik va badiiy matnlarda faol qo`llanuvchi maqollarning lingvistik tadqiqiga oid ilmiy tadqiqotlarning hozirgi vaqtda dolzarb va muhimligidan dalolat beradi.

Xalqimiz mustaqillikka erishgach, o`zbekona urf-odatlar, rasm-rusumlar, asrlar davomida yaratilgan xalq og`zaki durdonalari o`zining haqiqiy bahosini topdi. Mustaqillikning birinchi kunlaridanoq respublikamizda xalqimizning milliy qadriyatlari, madaniyati, manaviyati hamda til madaniyatiga katta e'tibor qaratila boshlandi. Mustaqillikning ilk kunlaridanoq uzoq yillar davomida saqlanib, bizga meros bo`lib qolgan xalqimizning qadriyatlari va madaniyatimizning tiklanishiga erishildi[1]. Xalq og`zaki ijodi durdonalari o`zining eng qadimiy va betakrorligi, yuksak ijodiy salohiyatga ega ajdodolarimizning ko`p asrlik an'analari, turmush-tarzi, tarixi, dunyoqarashi, turli e'tiqodlari haqida teran va mukammal ma'lumot beruvchi ma'naviy va madaniy oltin merosimiz hisoblanadi.

**Dehqon** – 1. Asosiy kasbi ekin ekishdan, dehqonchilikdan iborat bo`lgan kishi.

---
[1]Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida. -T. 1997, -B.317.

2. Kollektivlashtirish davrida o`z xususiy yeri, ot-ulovi va qishloq xo`jalik asboblari bilan birga kolxozga a'zo bo`lib kirgan kishi.

3. Kasb oti.

1. Dehqon – yer sultoni,
Cho`pon – yaylov sultoni.
2. Dehqon dalasin tuzar,
Bog`bon bog`ini tuzar.
3. Dehqon odam don sochar,
El-yurtiga non sochar.
4. Dehqon qorda tinar.
Cho`pon – go`rda.
5. Dehqonning rizqi yer bilan kuchiga bog`liq.
6. Yomon dehqon – yer qo`rir,
Yomon xotin – er.
7. O`rmonga sher yarashar,
Dehqonga yer yarashar.
8. Dehqon bo`lsang yer boshida bo`l,
Sipoh bo`lsang el qoshida bo`l.
9. Dehqon yomg`ir tilaydi,
Kulol ayoz tilaydi.
10. Dehqon yog`sa tinar, cho`pon o`lsa tinar.
11. Dehqon tarig`idan kechsa ham, chumchuqlar chiqisholmaydi.
12. Dehqonning uyi kuysa kuysin, ho`kizi o`lmasin.
13. Dehqonning o`zi kasal bo`lsa ham,
Ho`kizi kasal bo`lmasin.
14. Dehqonchilik – chilik-chilik,
Bo`lmasa – quruqchilik.
15. Dehqonning qopi tik turmasa beli bukiladi.
16. Hut kirdi – dehqon paytavasiga qurt kirdi.
17. Bog`bon bo`lsang sarxar qil,
Dehqon bo`lsang shudgor qil.
18. Zar bo`lmasa zargar xarob,
Yer bo`lmasa dehqon xarob.
19. Dehqon ishlab don sochar,
Elga rizq yo`lin ochar.

20. Dehqon dehqondan qolsa bir yilda yetar.
Cho`pon cho`pondan qolsa qirq yilda yetar.
21. Yer qudrati – dehqon qudrati.
22. Dehqon ekkanini yeydi,
Cho`pon – boqqanini.
23. Dehqonning rizqi yer bilan kuchiga bog`liq.
24. Dehqonning xazinasi – yer,  Kaliti – ter.
25. Yer – daryo, dehqon – xazinabon.
26. Dehqon bo`lsang shudgor qil,
Mulla bo`lsang takror qil.
27. Dehqon bo`lsang yerni to`ydir.
28. Dehqon bo`lsang kuz hayda,
Kuz haydamasang yuz hayda.
29. Dehqon donini sochar, yer yirtmoq bilan zar yo`lini ochar.
30. Dehqon yer bilan tirik.
31. Dehqon kasbini xo`rlamas.
32. Dehqon emas ketmon chopib non bermasa,
Oshiq emas ishq yo`lida jon bermasa.
33. Dehqon ketmonini sotmaydi.
34. Dehqonning aqli ko`zida bo`lishi kerak.
35. Dehqonning ishi yer bilan,
Yerning ishi suv bilan.
36. Dehqon suv bilan tirik.
37. Dehqonchilikda yil yilga o`xshamas.
38. Dehqon ekkanini olar,
Bog`bon tikkanini.
39. Dehqonning qoni – suv, joni – yer.
40. Dehqon xazinasi – yer.
41. Yer qudrati – dehqon qudrati.
42. Bir dehqon omoch bilan, yettovlon cho`mich bilan.
43. Baliqning tirikligi suv bilan,
Dehqonning tirikligi yer bilan.
44. Dehqonning rizqi yer bilan kuchiga bog`liq.
45. Dehqon yoqqanda tinar,
Cho`pon – o`lganda.

46. Dehqon ishlab don sochar,
Elga rizq yo`lin ochar.
47. Dehqon ekkanini yeydi,
Cho`pon – boqqanini.
48. Dehqon bo`lsang yerni to`ydir.
49. Yomon dehqon yer qo`rir,
Yomon xotin – er.
50. Dehqonning aqli ko`zida bo`lishi kerak.
51. Dehqon donini sochar,
Yer yirtmoq bilan zar yo`lin ochar.
52. Dehqonning ishi yer bilan,
Yerning ishi suv bilan.
53. Yer – dehqonning joni, suv – koni.
54. Yer qadrini bilmas yer ekmagan dehqonlar,
El qadrini bilmaydi  el ko`rmagan nodonlar.
55. Dehqon havo bilan tillashadi,
Tillashadimas bellashadi.
56. Yozda ishlamagan dehqon qishda o`ksinar.
57. Ishbilarmon dehqonning ketmoni yerning tanobini o`zadi.
58. Oz ekib, ko`p olganni dehqon derlar,
Ko`p ekib, oz olganni hammol derlar.
59. Qantar og`sa, qalt etar,
Dehqonning ko`zi yalt etar.
60. Mulla bo`lsang, takror qil,
Dehqon bolsang, shudgor qil.
61. Ovchining zo`ri sher otar,
Dehqonning zo`ri yer ochar.
62. O`rmonga sher yarashar,
Dehqonga yer yarashar.
63. Dehqon makkasidan kechsa ham,
Chumchuqlar kelisholmaydi.
64. Suv dehqonning qoni, yer - uning joni.
65. Xotin eri bilan,
Dehqon yeri bilan.
66. Yozda ishlamagan dehqon qishda kesak yer.

67. Mullaga ang, dehqonga non,
Tentakka don kerak.

Dehqonlar – ijtimoiy guruh, aholining asosiy kasbi dehqonchilik bo`lgan maxsus toifasi. Dehqon mehnat faoliyati, turmush tarzi, manfaati va ko`nikmalariga ko`ra jamiyatdagi boshqa sinf va ijtimoiy guruhlardan farq qiladi. Dehqonlar agrar sohada faoliyat ko`rsatadi, yer va boshqa resurslarga egalik qiladi, o`z ishlab chiqarish vositalari va oila a’zolari mehnati bilan yakka xo`jalik yuritadi. Dehqonlarning paydo bo`lishi ibtidoiy jamoat tuzumining parchalanish jarayonida qishloq xo`jaligida ixtisoslashuv yuz berib, dehqonchilikning chorvachilikdan ajralib chiqishi va mayda oilaviy xo`jaliklarning yuzaga kelishi bilan bog`liq.

**Dehqonchilik** – o`simlik mahsulotlari ishlab chiqarish uchun madaniy o`simliklar (qishloq xo`jalik ekinlarini) yetishtiruvchi qishloq xo`jalik tarmoqlaridan biri. Aholini oziq-ovqat mahsulotlari, chorvachilikni yem-xashak, ko`pgina sanoat tarmoqlarini xomashyo bilan ta’minlaydi.

**Dehqonning uyi kuysa kuysin, ho`kizi yo`qolmasin**. O`tmishda dehqonning butun tirikchiligi uning omochini tortib, yerini haydab beradigan ho`kiz bilan bog`liq bo`lgan. Shuning uchun ham dehqon ho`kizni benihoya qadrlagan, o`zini sansirasa ham ho`kizini sizsiragan[2].

**Dehqon bo`lsang yer boshida bo`l, sipoh bo`lsang el qoshida bo`l**. Bu maqolda dehqon, sipoh, umuman, har bir kasb egasi o`z ishining tepasida bo`lishi, ko`z-quloq bo`lib turishi, tirikchiligini o`tkazayotgan ishning parvonasi, jonkuyari bo`lishi zarur degan fikr ilgari surilgan[3].

**Dehqon yog`sa tinar, cho`pon o`lsa tinar** maqolida cho`pon hayoti tinimsiz mehnatda, mashaqqatda o`tishi e’tiborga olingan. Dehqon esa bahorda sochgan urug`ini kuzda yig`ib olgach, keyin tinadi. Ammo cho`ponning ishi bunday emas. U bahorda tug`ilgan uloqcha-qo`zilarini yil davomida avaylab-asraydi. Qish qilich yalang`ochlab kirib kelganda esa yanada qiyin ahvolga tushadi. Qishdan eson-omon chiqqach, bahorda yana chorvasi qo`zilaydi. Xullas, cho`pon yil davomida tinim bilmaydi.

**Dehqon tarig`idan kechsa ham, chumchuqlar chiqisholmaydi. Q**adimdan o`zbek xalqining qon-qoniga singib ketgan urf-odatlar mavjud: meros taqsimlash. Bu maqol ilgari janjalkash, mansabparast, tekinxo`r amaldorlarga nisbatan

---

[2] Ш.Шомаксудов, Ш.Шорахмедов.. Хикматнома:узб.маколларининг изохли лугати.-Т.:Узб. Совет Энсиклопедияси Бош редаксияси, 1990,- 528б

[3] Ш.Шомаксудов, Ш.Шорахмедов.. Хикматнома:узб.маколларининг изохли лугати.-Т.:Узб. Совет Энсиклопедияси Бош редаксияси, 1990,- 528б

ishlatilgan. Ya'ni, aksariyat hollarda badavlat, mulkdor ota mol-mulkini o`zi hayotlik chog`idayoq o`g`il-qizlariga meros tariqasida qoldirib, taqsimlab ketgan bo`lsa ham, voris farzandlar taqsimlangan ulushga qanoat hosil qilmay, o`zaro kelisholmay, janajallashib yurardilar. Aslini olganda hamma ham oson yo`l bilan topilgan boylikka ega bo`lishni xohlaydi. Insoniyat tug`ilibdiki, nafs degan balo doim u bilan birga. Hamma yaxshi yashashni, bir-biridan o`zib ketishni istaydi. Taqsimlangan meros borasida aka-ukalar chiqisholmay, o`limgacha ham borgan holatlar uchrab turadi. Ota ruhini chirqiratgan farzandlar kelajakda o`z hayot yo`lini topib, baxtli bo`lib ketadi deb kim kafil bo`la oladi.

**Yozda ishlamagan dehqon qishda kesak yer.** Yoz fasli erinmay mehnat qiladigan, ter to`kib ishlanadigan fasl hisoblanadi. Yoz bo`yi mehnatdan bo`yin tovlamay harakat qilsang, oziq-ovqating, kiyim-kechaging, yem-xashagingni yig`ib olsang, qishda mazza qilib yeb yotasan. Aslini olganda ushbu maqol majoziy ma'noda, ya'ni yoz fasli insonning yoshlik davri, qish fasli esa qarilik davriga nisbat berilgan. Yoshligingda, bilagingda kuching yetarli paytda keraklicha mehnat qilsang, qariganingda farzandlaring voyaga yetib, tirikchilik yukini o`z zimmalariga oladilar, seni mashaqqatdan forig` etadilar. Agar boqimandalikka odatlansang, qarib, kuching ketgan vaqtda ham qiynalib yashaysan. Shunday ekan har bir vaqtni g`animat bil, deyilmqchi.

**Dehqon bo`lsang yerni to`ydir.** Dehqonning asosiy boyligi yer bilan bog`liq. Sababi unumdor yerga qadalgan urug` kelgusida mo`l hosil berib, barchaga rizq ulashadi. Yerni alohida mehr bilan parvarishlagan, ya'ni vaqtida yumshatgan, sug`organ, shudgor qilgan dehqonning ishida baraka, hosilida unum bo`ladi. Shunchaki qo`l uchida mehnat qilib, dangasalik qilganlar esa rizqdan quruq qolib ketadilar. Qilingan mehnat, albatta, o`z natijasini beradi.

**Adabiyotlar:**

1. Oxunjonovna, B. D. (2023). MAHMUD QOSHG'ARIYNING "DEVONU LUGOTIT TURK" DAGI SHAKLINI HAM, MAZMUNINI HAM SAQLAGAN IDIOMALAR TAHLILI.
2. Bobojonova, D. (2024). TYPES OF OCCUPATIONS RELATED TO THE LIFE OF THE UZBEK PEOPLE (within the profession of blacksmithing). *Modern Science and Research*, *3*(2), 739–746.
3. Bobojonova , D. . (2024). MANIFESTATION OF LEXEMES RELATED TO THE PROFESSION OF BLACKSMITHING IN FOLK PROVERBS. *Modern Science and Research*, *3*(1), 687–693.

4. Bobojonova Dilnoza Okhunjonovna. (2023). Mahmud Kashgari's Work "Devonu Lug'otit Turk" is an Important Scientific Heritage. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769)*, *1*(10), 538–543.

5. Bobojonova, D. (2023). MAHMUD KASHGARI'S WORK "DEVONU LUG'OTIT TURK" IS AN IMPORTANT SCIENTIFIC HERITAGE. *Modern Science and Research*, *2*(12), 742–748.

6. Bobojonova, D. (2023). THE ROLE OF MAHMUD KASHGARI'S WORK "DEVONU LUG'OTIT TURK" IN THE DEVELOPMENT OF THE UZBEK LANGUAGE. *Modern Science and Research*, *2*(4), 568–5672.

7. Okhunjonovna, B. D. (2023). Comparative Analysis of Proverbs in "Devonu Lug`Otit Turk" and Currently Available. *European Journal of Higher Education and Academic Advancement*, *1*(2), 194–198.

8. Bobojonova Dilnoza Okhunjonovna. (2023). A Proverb is a Product of Folk Wisdom. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769)*, *1*(9), 333–338. Oxunjonovna, B. D. (2022). O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA LISSONIY INTERFERENSIYANING KO'RINISHLARI. *PEDAGOGS jurnali*, *14*(1), 22-25.

9. Bobojonova, D. (2023). THE IMPORTANCE OF UZBEK FOLK PROVERBS. *Modern Science and Research*, *2*(10), 670–675.

10. Bobojonova, D. (2023). MAHMOUD QOSHGARI'S ”DEVONU LEXICOTIT TURK" AND ITS PLACE IN LINGUISTICS. *Modern Science and Research*, *2*(10), 538–540

11. Bobojonova, D. . (2023). ANALYSIS OF IDIOMS THAT PRESERVE BOTH FORM AND CONTENT IN MAHMUD KASHGARI'S "DEVONU LUG`OTIT TURK". *Modern Science and Research*, *2*(9), 64–67. Okhunjonovna, B. D. (2024). Analysis of Folk Proverbs Based on Medicine. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, *4*(3), 125-131.

12. Ruziyeva, M. Y. (2020). About color symbols in folklore. *Journal of critical reviews. ISSN-2394-5125 VOL*, *7*.

13. Ruziyeva, M. Y., & Aslonova, S. S. (2021). Theoretical and Practical Foundations of Teaching Folklore In Primary School. *Middle European Scientific Bulletin*, *10*.

14. Lyro-epic literary fairy tales in uzbek children's literature
MY Ruziyeva, S Lobar

15. Yoqubovna, R. M. (2017). Expression of Attitude to Colors in Turkic National Ritual Songs. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, *6*(1), 54-68.

16. Yokubovna, R. M. (2020). About color symbols in folklore. *JCR*, *7*(17), 461-466.

17. Ruziyeva, M. Y., & Lobar, S. (2023). Lyro-epic literary fairy tales in uzbek children's literature.

18. Bahrievna, P. N., & Ro'ziyeva, M. Y. (2023). Reforms and Innovations in the Educational System in Uzbekistan. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, *1*(6), 47-51.

19. Ro'ziyeva, M. Y. (2020). COLOR SYMBOLISM IN UZBEK FOLKLORE. *Theoretical & Applied Science*, (5), 277-284.

20. Ruzieva, M. Y. (2022). SYMBOLISM OF MYTH, SYMBOL AND COLOR. *Ann. For. Res*, *65*(1), 2719-2722.

21. Ruzieva, M. (2016). Colour and its psychoanalytical interpretation in folklore. *Язык и культура (Новосибирск)*, (23), 127-130.

22. Ro’ziyeva, M. Y. (2020). Color symbolism in Uzbek folklore. ISJ Theoretical & Applied Science, 05 (85), 277-284.

23. Uzbekistan, B. Qualitative properties and imagery of Colors.

24. Ro‘ziyeva, M. Y. (2021). O’qish darslarida fasllar bilan bog’liq matnlar va ularning ahamiyati: DOI: 10.53885/edinres. 2021.86. 66.011 Ro ‘ziyeva MY, Boshlang ‘ich ta’lim nazariyasi kafedrasi mudiri, fffd (PhD) Madinabonu Xayrulloyeva, BuxDU, boshlang’ich ta’lim yo’nalishi 4 kurs talabasi. In *Научно-практическая конференция* (pp. 23-24).

25. Ro’ziyeva, M. (2021). FOLKLORSHUNOSLIKDAGI YANGI BOSQICHLAR VA ULARNING TA’LIM JARAYONIDAGI AHAMIYATI: Mohichehra Ro’ziyeva, BuxDu Boshlang’ich ta’lim nazariyasi kafedrasi mudiri, PhD, dotsent. In *Научно-практическая конференция* (pp. 21-22).

26. Сайфуллаева, Н. Б., & Саидова, Г. Э. (2019). Повышение эффективности занятий, используя интерактивные методы в начальном образовании. *Научный журнал*, (6 (40)), 101-102.

27. Сайфуллаева, Н. Б. (2023). ВАЖНОСТЬ МАТЕМАТИКИ И ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК ДЛЯ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ: Сайфуллаева Нозима Баходировна, преподаватель кафедры “Теория начального образования”, Бухарский государственный университет. Город

Бухара. Республика Узбекистан. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (1), 305-307.

28. Сайфуллаева, Н. Б. (2023). Методы Организации Уроков Математики В Начальных Классах С Использованием Цифровых Технологий. *Miasto Przyszłości*, *35*, 388-390.

29. Bahodirovna, S. N. (2023). FORMING CHILDREN'S IDEAS ABOUT THE SIZE OF OBJECTS AND THEIR MEASUREMENT. *Oriental Journal of Academic and Multidisciplinary Research*, *1*(3), 102-107.

30. Bahodirovna, S. N. (2023). KINDERGARTEN, SCHOOL AND FAMILY PARTNERSHIP IN TEACHING CHILDREN IN MATHEMATICS. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, *1*(10), 383-388.

31. Bahodirovna, S. N. (2023). Organization Forms of the Development of Primary Mathematical Concepts in Children. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, *1*(10), 138-143.

32. Сайфуллаева, Н. Б. (2022). Методы определения потребностей обучающихся в процессе использования облачных технологий в образовании. *Universum: технические науки*, (2-1 (95)), 57-59.

33. Сайфуллаева, Н. Б., & Марданова, Ф. Я. (2021). научно-методические основы организации самостоятельной работы по высшей математике. *Проблемы науки*, (4 (63)), 84-87.

34. Сайфуллаева, Н. Б., & Мурадова, Я. М. (2020). Пути эффективного использования методов обучения математике в начальных классах. In *EUROPEAN RESEARCH* (pp. 121-123).

35. Сайфуллаева, Н. Б. (2019). Роль дидактических игр в умственном развитии учащихся в математике начального класса. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS OF PHILISOPHY, PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY* (pp. 102-106).

36. Сайфуллаева, Н. Б. (2023). РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ КОМПЬЮТЕРНЫМ НАУКАМ. *Universum: технические науки*, (4-1 (109)), 41-43.

37. Сайфуллаева, Н. Б. (2020). Важные особенности дидактических игр в процессе обучения математике в начальных школах. In *ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ И ВОСПИТАНИЯ* (pp. 60-62).

38. Ergashovna, S. G., & Baxodirovna, S. N. (2019). Modern teaching technologies in teaching mathematics in elementary grades. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, *7*.

39. Bahodirovna, S. N. (2023). FORMS OF ORGANIZATION OF MATHEMATICS TEACHING IN ELEMENTARY GRADES. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, *10*(11), 5-8.

40. Bahodirovna, S. N. (2024). HEAD OF CHILDREN'S INSTITUTION IN ORGANIZING THE WORK OF FORMING MATHEMATICAL IMAGINATIONS AND BIG TEACHER'S PLACE. EDUCATORS KNOWLEDGE DEGREE AND FORMS OF DEVELOPMENT OF SKILLS. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, *4*(3), 119-124.

41. Bahodirovna, S. N. (2023). ELEMENTARY MATHEMATICS AND COHERENCE BETWEEN STAGES OF MATHEMATICS EDUCATION. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, *3*(5), 393-397.

42. Сайфуллаева, Н. Б. (2023). РОЛЬ МАТЕМАТИКИ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ. *PEDAGOGS jurnali*, *1*(1), 292-292.

43. Сайфуллаева, Н. Б. (2022). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ДИДАКТИЧЕСКОГО ПРОГРАММНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ В ОБУЧЕНИИ МАТЕМАТИКЕ. *НОВЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ*, 10-12.

44. Сайфуллаева, Н. Б. (2021). ВАЖНЫЕ АСПЕКТЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СИСТЕМЕ КЛАССНЫХ УРОКОВ. *Вестник науки и образования*, (5-3 (118)), 40-42.

45. Сайфуллаева, Н. Б. (2023). ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ДИДАКТИЧЕСКИХ ИГРОВЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПО МАТЕМАТИКЕ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ. *Проблемы педагогики*, (2 (63)), 15-17.

46. Hikmatovna, M. N. (2023). Goals and Tasks of Education. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, *1*(9), 360-362.

47. Hikmatovna, M. N. (2023). BOSHLANG'ICH SINFLARDA TEXNOLOGIYA FANINI O'QITISH JARAYONIDA QO’LLANILADIGAN METOD VA VOSITALAR. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, *1*(5), 339-344.

48. Hikmatovna, M. N. (2023). Tarbiyaning Maqsad Va Vazifalari. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-*

*2157)*, *1*(9), 386-388.

49. Mahmudova, N. H. (2023). Influence of family environment on personal socialization. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, *1*(10), 440-446.

50. Nigora Hikmatovna Mahmudova. (2023). BASIC TASKS OF TEACHING THE SCIENCE OF "EDUCATION" IN PRIMARY GRADES. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(10), 447–452.

51. Hikmatovna, M. N. (2024). Shaxs kamoloti ijtimoiy-biologik hodisa, pedagogik jarayon obyekti va subyekti sifatida. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, *2*(1), 31-43.

52. Mahmudova Nigora Hikmatovna. (2024). INFLUENCE OF FAMILY ENVIRONMENT ON PERSONAL SOCIALIZATION. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(3), 164–170.

53. Hikmatovna, M. N. (2024). CONTENT OF THE INTERNATIONAL ASSESSMENT PROGRAM. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, *2*(2), 88-94.

54. Hikmatovna, M. N. (2024). Teaching of specialized subjects in primary education. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(2), 453-460.

55. Hikmatovna, M. N. (2024). Boshlang'ich ta'limda mutaxassislik fanlarini o'qitish. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(2), 445-452.

56. Махмудова Нигора Хикматовна. (2024). Преподавание профильных предметов в начальной школе . *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, *4*(2), 436–444.

57. Akbarovna, I. S. (2023). SOCIO-PSYCHOLOGICAL FACTORS OF BEHAVIOR FORMATION IN ADOLESCENTS. TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN, 1(5), 184-191.

58. Akbarovna, I. S. (2023). THE DEVELOPMENT OF CONSCIOUSNESS AND THE TEACHING OF CONCEPTS OF THE UNCONSCIOUS TO STUDENTS. TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN, 1(5), 107-114.

59. Sitora Akbarovna Ikromova. (2023). Formation of Ideological Immunity to Destructive Information. *Intersections of Faith and Culture: American Journal of Religious and Cultural Studies (2993-2599)*, *1*(9), 50–54.

60. Akbarovna, I. S. (2023). Study of the Formation of Ideological Immunity By Foreign and Russian Researchers. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(9), 235-239.

61. Akbarovna, I. S. (2023). Adolescence during Destructive Behavior Appearances the Problem Learning Condition. Intersections of Faith and Culture: American Journal of Religious and Cultural Studies (2993-2599), 1(9), 105-109.